

DORIVOR TIRNOQGUL (CALENDULA OFFICINALIS L) O'SIMLIGINING KIMYOVIY TARKIBI VA DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

N.O'.Sindarov¹.

M.G.Ismailova².

¹ Toshkent farmasevtika instituti, Biotexnologiya kafedrası assistenti
nodirbeksibdarov@gmail.com

² "PHARMACON LLC" direktori, farm.f.d., prof.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10648858>

Annotatsiya: Olib borilgan izlanishlar natijasida dorivor tirnoqgul o'simligining dorivorlik xususiyatlari, yashash sharoiti, geografik tarqalishi, kimyoviy tuzilishi va makro-mikro elementlari yoritilgan bo'lib, zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda ushbu o'simlik asosida turli dori turlarini yaratish, hamda import o'rnini bosuvchi dori vositalarni ishlab chiqarish, farmatsevtika bozorini boyitishda muhim ahamiyatga ega. Bunday tahlillar yangi dori vositalarini ishlab chiqishda tadqiqot obyekti tanlashning samarali tadqiqot usulidir.

Kalit so'zlar: tirnoqgul, calendula officinalis, gul, elementlar, efir moy, damlama, preparat, mikro va makro elementlar.

Kirish. Ohirgi yillarda tibbiyotda o'simlik xomashyolari asosida olingan dori vositalarining ulushi yildan yilga ortib bormoqda va bugungi kunga kelib 60% dan ko'proqni tashkil qiladi. O'simliklardan olingan dorilarga talabni oshib borishining asosiy sabablaridan biri ularning organizmga yumshoq ta'sir ko'rsatishi, kam hollarda nojo'ya ta'sirni namoyon qilishi hamda arzonligini keltirish mumkin [1,4].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20-maydagi PQ 251-sonli qaroriga muvofiq dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda [3].

Dorivor tirnoqgul (*Calendula officinalis* L) - Vatani Janubiy va Markaziy Yevropa hisoblanadi. O'rta Osiyoning barcha respublikalarida manzarali va dorivor o'simlik sifatida ko'p tarqalgan. Ushbu dorivor o'simlik astraguldoshlar oilasiga mansub bo'lib, calendula nomi bilan ham ko'pchiligimizga ma'lum. Bu o'simlik qadim zamonlardan beri xalq tabobatida ham keng miqyosda foydalanilib kelinmoqda. Hozirda rasmiy tibbiyotga ham keng qo'llanilmoqda [2,5].

Tadqiqot materiallari. Dorivor tirnoqgul ko'p dorivorlik xossalarini jamlagani tufayli yurtimizdagi ko'plab hududlarda ekib o'stirilmoqda. Tirnoqgul o'simligining gullari tarkibida karotin va unga yaqin turadigan boshqa moddalar, efir moylari, azotli shilimshiq moddalar, qatronlar, organik kislotalar bor. Tirnoqgulning yer ustki qismida kalenden achchiq moddasi, oshlovchi moddalar, triterpendiollar va saponinlar mavjud. Urug'larida yog'li moy va biroz miqdorda alkaloidlar bor. O'simlik gullari tarkibidagi karotenoidlar, kalenden, karotin, qatronlar, organik kislotalar, efir moylari, glikozidlar, taninlar, fitonsidlar miqdori yuqori bo'lganligi sababli maksimal darajada foydalaniladi.

Tadqiqot natijalari. Dorivor tirnoqgulning juda yaxshi shifobaxsh xususiyatga egaligi, ko'pgina dardlarga davo bo'lib, ko'ngilga orom beruvchi xususiyati qadimdan ma'lum bo'lgan. Tabiblar undan peshob xaydashda, balg'am ko'chirishda dori sifatida foydalanishgan. Bundan tashqari tirnoqgulni gepatit, xoletsistit, me'da yara kasalligi, gipertoniya, siydik-tosh kasalliklarini ham davolashda ishlatishgan. Tomoq og'rig'i, tish atrofidagi to'qimalar kasalliklari, og'iz elikishini davolash uchun tirnoqguldan tayyorlanadigan har xil dorilar buyurilgan. Ibn Sino ham tirnoqgulni kal kasalligi, belangini davolashda ishlatgan, ilon, chayon

chaqqanda buyurgan. Farangistonda bu o'simlik gullaridan yara jarohatlarini bitiradigan, terlatadigan vosita sifatida keng qo'llanilgan. Hind tabobatida uni quvvatga kirgizadigan, tetiklashtiradigan dori sifatida buyurilgan.

Zamonaviy tibbiyotda tirnoqgul preparatlarining markaziy nerv sistemasini tinchalantirib, qon bosimini pasaytirishi, yurak ishini maromiga keltirishi, kasallik tug'duruvchi ko'pgina bakteriyalarga xalokatli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Bu preparatlardan jigar, taloq, buyrak, me'da, o't yo'llari kasalliklari, gipertoniya, ateroskleroz, ba'zi yurak kasalliklari, klimaksni davolashda foydalaniladi.

Shuningdek Dorivor tirnoqgul tarkibida: Bor (B), Fosfor (P), Temir (Fe), Kaliy (K), Simob (Hg), Rux (Zn), Kalsiy (Ca), Marganets (Mn), Natriy (Na), Magniy (Mg), Kumush (Ag), makro-mikro elementlar mavjud bo'lib, ular inson organizmi uchun zarur bo'lgan elementlar hisoblanadi.

Natijalar muhokamasi: Olingan natijalarga asoslanib, dorivor tirnoqgul dorivor o'simligini shifobaxsh xususiyatlari inobatga olib, zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda ushbu o'simlik asosida turli dori turlarini yaratish, hamda import o'rnini bosuvchi dori vositalarni ishlab chiqarish farmatsevtika bozorini boyitishda muhim ahamiyatga ega.

References:

1. Arora D, Rani A, Sharma A. A. Review on phytochemistry and ethnopharmacological aspects of genus *Calendula*//Pharmacogn Rev. 2013; 7(14): 179.
2. Safdar W., Majeed H., Naveed I. Pharmacognostical study of the medicinal plant *Calendula officinalis* L.(family Compositae). Int. J. Cell Mol//Biol. 2010; 1: 108-116.
3. Хайдаров М.М., Турдалиев А.Т., Саминов А.А.У. Энергетические особенности аминокислот в светлых сероземах // Тенденции развития науки и образования. – 2021. – № 80-3. – С. 45-47. – DOI 13.18411/trnio-12-2021-121.
4. Safarova D.T., Madraximov Sh.N., Nazarova Z.A., Maksudova F.X. Studying the wet absorption kinetics of the dry extract of "hyposedaf"// The multidisciplinary journal of science and technology volume 2 ISSU-1.America//2024.-P.57-61.
5. Gazim ZC, Rezende CM, Fraga SR, Dias Filho BP, Nakamura CV, Cortez DAG. Analysis of the essential oils from *Calendula officinalis* growing in Brazil using three different extraction procedures. Revista Brasileira de Ciências Farmacêuticas. 2008; 44(3): 391-395.